



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 27-iyul, payshanba,
89 (23.810)-son

**KUN
HIKMATI**

Vaqtni topishdan
osoni yo'q, faqat
undan oqilona
foydalanish og'ir
ish

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

“AL-JOME’ AS-SAHIH”NING ARAB VA INDONEZ TILLARIDAGI NUSXASI KELTIRILDI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida-
gi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida mu-
haddislar sultoni qalamiga mansub “Al-Jome’ as-sahih”
asarining arab va indonez tillaridagi uch jildli nusxasi
taqdimoti o‘tkazildi.



Marosimda O‘zbekiston Res-
publikasi Prezidenti masalalari ha-
qida Xayriddin Sultonov, Muzaffar
Komilov va boshqalar ko‘plab
sohalar kabi diniy-ma’rifiy jabha-
dagi islohotlar natijasida ro‘y be-
rayotgan yangilanishlar asnosida
mamlakatimizda mazkur yo‘nalish-
da yangi tarixiy davr boshlanayot-
ganini e’tirof etdi. Ayniqsa, Imom
Buxoriy majmuasining qaytadan
qurilib, ulkan obodonlashtirish
ishlari olib borilayotgani, majmua
ichki qismining chuqur mazmun
bilan boyitilishiga qaratilayotgan
e’tibor musulmon dunyosida katta
qiziqish uyg‘otayotganini ta’kidla-
dilar.

Taqdimot qilinayotgan kitob
ham dunyo xalqlarining asar va
uning muallifiga bo‘lgan yuksak
ehtiromidan dalolat ekani qayd
etildi.

- Keyingi paytda O‘zbekiston -
Indoneziya munosabatlari barcha
sohalarda, xususan, madaniy-
ma’rifiy sohada izchil rivojlanib
bormoqda, - dedi M.Komilov.
- Bugun buyuk muhaddis bobo-
miz nomi bilan ataladigan xalqaro
markazga Islom olamida Qur’oni
karimdan keyin ikkinchi muqaddas
manba sifatida e’tirof etilgan “Sa-
hahul Buxoriy” asarining indonez
va arab tillaridagi noyob nusxasi-
ning taqdim etilishi ham ana shu
do‘stona aloqalar mahsulidir. Yana

bir ahamiyatli tomoni, mazkur
asar bugungi kunda hadislarning
noto‘g‘ri talqin etilishi va buyuk
muhaddislar, xususan, Imom Bu-
xoriyga nisbatan ilmsizlik va noxo-
lislik bilan bildirilayotgan uydirmali
fikrlarga qarshi ilmiy raddiya be-
rish uchun ham mustahkam ilmiy
poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Taqdimotda asarning arab va
indonez tillaridagi uch jildli nusxasi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tad-
qiqot markaziga tantanali tarzda
topshirildi.

Indoneziyalik islomshunoslik
fanlari doktori Ali Hamdiy tomoni-
dan tayyorlangan kitob Imom Bu-
xoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot marka-
ziga Birlashgan Millatlar Tashkiloti
Bosh kotibining o‘rinbosari, Osiyo
va Tinch okeani bo‘yicha iqtisodiy
va ijtimoiy komissiyasi ijrochi kotibi
Armida Alishahbana xonim tomoni-
dan tortiq etildi. U o‘tgan yilning
sentabr oyida markazga tashrif
buyurib, uning faoliyati, erishgan
ilmiy yutuqlari bilan tanishgan, shu
asnoda mamlakatimizda diniy-
ma’rifiy sohada olib borilayotgan
islohotlar samarasini yuksak ba-
holagan edi.

Tadbir ishtirokchilari asar nus-
xasi markaz muzeyi va kutubxona
fondidan munosib o‘rin egallashi,
tadqiqotchilar ilmiy faoliyatida
muhim ahamiyat kasb etishini
ta’kidladi.



DXX RAHBARI YOSHLARNING TAKLIFLARINI QO‘LLAB-QUVVATLADI

Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi bosh-
lig‘i A.Axmedovning navbatdagi “Rahbar va yoshlar”
uchrashuvi Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida yosh tadbirkor va hunarmandlarning ijod
namunalari ko‘rgazmasi bo‘ldi. Shundan so‘ng mahalladagi yoshlar
yetakchilari o‘rtasida shaxmat bo‘yicha DXX viloyat boshqarmasi
boshlig‘i kubogi bahslariga start berildi.

Musobaqa ochilishida yurtimizda shaxmat rivojlanib borayotgani,
respublika bo‘yicha bizda eng ko‘p - 8 nafar xalqaro grossmeyster
yetishib chiqqani, shuningdek, 29 nafar trener-o‘qituvchi rahbarligi-
da 975 nafar sportchi ushbu sport turi bilan muntazam shug‘ullanib
kelayotgani ta’kidlandi.

Tadbir davomida boshqarma boshlig‘i tomonidan 500 nafarga
yaqin yoshlarning tadbirkorlik, ishga joylashish, sport bilan shug‘ul-
lanish uchun sharoit yaratish, kitobxonlik va kompyuter savodxonligi
masalalari yuzasidan murojaat va takliflari eshitildi.

Jumladan, Navro‘z mahallasida yashovchi Munis Baxtiyorov mahalla
yoshlari uchun sport zal qurish yoki shug‘ullanish uchun sharoit yaratib
berish, Yuqori xo‘jasoat mahallasida yashovchi Sarvinov Nosirovaning
xotin-qizlarni qandolatchilik kasbiga o‘qitish uchun katta pech so‘rab

qilgan murojaati Samarqand shahar hokimligi mas’ullari tomonidan
tegishli tartibda o‘rganilib, yordam ko‘rsatiladigan bo‘ldi.

Sartepa mahallasida yashovchi Tozagul Doliyeva 17 yoshli qizi
Marjona Xolbekova ikkinchi guruh nogironi ekanligi va chet tilini
o‘rganishi uchun kompyuter kerak bo‘layotganini so‘ragan bo‘lsa,
Gulobod mahallasida yashovchi Jasmina kutubxona uchun 200 ta
kitob kerakligi yuzasidan murojaat qildi va ularga DXX viloyat bosh-
qarmasi tomonidan yordam berish choralari ko‘rildi.

Uchrashuvda yoshlar yetakchilari tomonidan ham murojaat va
takliflar bo‘ldi. Xususan, Gulbahor mahallasi yoshlar yetakchisi
Nodira Begmatova mahallada zamonaviy “Street workout” maydon-
chasi qurish bo‘yicha qilgan murojaati tegishli tartibda o‘rganilib,
yordam berilishi aytiladi. Alisher Navoiy mahallasi yoshlari yetakchisi
Farangiz Xudoyorova esa yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini
olishda DXX viloyat boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlashni va eng
namunali mahalla tajribasi e’tirof etilib, rag‘batlantirilishini so‘radi va
taklif mutasaddilar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Tadbirda faol ishtirok etgan yoshlar va shaxmat musobaqa-
si g‘oliblari boshqarmaning diplom va esdalik sovg‘alari bilan
taqdirlandi.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.



“Inson qadri uchun”

HECH BIR MUROJAAT E‘TIBORDAN CHETDA EMAS

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Virtual va Xalq qabulxonalari aholini qiy-
nab kelayotgan muammolarga tezkor
yechim topish, joylarda infratuzilma bilan
bog‘liq masalalarni hal etish uchun qulay
institutga aylandi.



(Davomi 2-sahifada) >>>



Aks-sado

Zarafshon gazetasining 86-sonida chop etilgan “Uch oylik yozgi
ta’til zaruratmi yoki an’ana?” sarlavhali maqolani o‘qidim. Unda
muallif ko‘tarilgan muammoning barcha jihatlarini qamrab olish-
ga harakat qilgan. Mening fikrimcha, yozgi ta’tilni isloh qilish
masalasida gapirilganda yana bitta muhim, balki hal qiluvchi omil
nazardan chetda qolib ketgandek. U ham bo‘lsa, mamlakatimiz
ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridir.

Avval o‘qituvchini rozi qilaylik

Ma’lumki, O‘zbekistondagi ta’lim
sohasidek noyob tizim dunyoning
boshqa biror joyida uchramaydi. O‘n
ikki yillik, bepul, majburiy, umumiy
o‘rta, ommaviy, yetti tilda, tekin dars-
liklar... Ko‘pchilik xorijliklar uchun no-
tanish bo‘lgan bu tushunchalarni yana
uzoq sanash mumkin. Boshqa davlat-
larda o‘rta ta’lim 12 yil emas, yo ma-
jburiy emas, yo ko‘p tillik emas, yoki
bo‘lmasa, tekin emas, xullas, bunaqa
serxarajat, beso‘namay ta’lim tizimi
dunyoning boshqa biror mamlakatida
yo‘q. Aynan shu sababdan ham bizda
xalq ta’limi uchun ajratiladigan mas-
lag‘ning katta qismi tashkiliy masalaga
sarf etilib, o‘qituvchilarga to‘lanadigan
ish haqi yildan yilga kamayib bor-
moqda. Masalan, o‘qituvchilarning
2019-yildagi maoshi bilan bugungisi-
ning narx-navo orasidagi farqi yer bilan
osmon qadar. O‘shanda non 1000-
1500 so‘m atrofida turgan bo‘lsa, hozir
3000-4000 so‘m, go’sht 35000-40000
so‘m edi, endi esa 75000-80000 so‘m
atrofida baholanmoqda. O‘qituvchi bir
qarashda o‘tning kallasidek ko‘ringan
maoshini ro‘zg‘origa yetkazolmay-
di, yozgi ta’til davrida mardikorchilik,
ustachilik, hech bo‘lmasa, dehqon-
chilik qilib, daromad qilishga harakat
qilishi sababi ham shunda. Aslida
shu og‘ir jismoniy mehnat ham uning
uchun hordiq.

Ha, ajablanmang, muallimning
mehnati shunaqa og‘irki, jismonan
qiynalsa ham asablari biroz dam olsa,



o‘zini yengil his qiladi. Shu sababdan
ham ko‘pchilik muallimlik kasbidan
qochib, o‘zini turli ishlarga urmoqda.
Ayniqsa, oxirgi vaqtda ayrim ota-onal-
arning muallimlarga bo‘lgan tajovuzko-
rona munosabati, ur kaltak-sur kaltak
voqealaridan keyin hech kim maktabni,
o‘qituvchilikni orzu qilmay qo‘ydi. Bilimli
pedagoglarning barchasi yo Prezident
maktablarida, yo o‘quv markazlarida
ishlashga ishqiboz bo‘lmoqda.

Maqola muallifining ta’til vaqti va
muddatlari haqidagi taklifiga kelsak,
bunda o‘zimizning mahalliy shart-sha-
roitlarni ham inobatga olish lozim, deb
o‘ylayman. Xorijliklarga havas qilib,
laylakka taqlid qilgan chittak holiga
tushib qolmaylik.

Xudoyberdi KOMILOV.

Nafs balosidan tiyiling

Joriy yilning o‘tgan davridagi
o‘rganishlarda viloyatda 517
holatda 145 gektar yer maydoni
o‘zboshimchalik bilan egallab
olinganligi aniqlandi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil
8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik
va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan
huquqlarni ishonchli himoya qilish va
ularni bozor aktiviga aylantirish cho-
ra-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan
2021-yilning avgust oyidan yer ajratish,
ijaraga berish yoki yer bilan bog‘liq
turli imtiyoz va yengilliklarni berish
tizimi o‘zgardi. Bir qator yangi tartiblar
o‘rnatildi.

Jumladan, toifasidan qat’i nazar,

barcha turdagi yer uchastkalari hamda
bino-inshootlarga bo‘lgan huquqlarni
davlat ro‘yxatidan o‘tkazmaslik holat-
larini aniqlash, yer uchastkalarining
o‘zboshimchalik bilan egallab olinishi-
ga va chegaralarini o‘zboshimchalik
bilan o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaslik
choralarini ko‘rish, yerdan maqsadli
foydalanilishi ustidan davlat nazorati
Kadastr agentligi tomonidan amalga
oshirilishi belgilandi.

Yerlarni noqonuniy egallab olish yoki
yer bilan bog‘liq korruptsiya holatlarga
qarshi jiddiy kurashilayotgan, buning
sabab va oqibatlarini yuzasidan aholi o‘rta-
sida tushuntirish ishlari olib borilayotgan
bo‘lishiga qaramay, hali-hanuz qonunga
zid holatlar qayd etilmoqda. Birgina joriy
yilning birinchi yarmida Prezident farmoni

ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganishlar-
da 517 gektar yer maydonlari, jumladan,
265 holatda 123 gektar yer uy-joy qurish
maqsadida o‘zboshimchalik bilan egallab
olingani aniqlandi. Qonunbuzilish holatla-
rini bartaraf etish yuzasidan 517 ta ogoh-
lantirish xatlari yuborildi. Natijada 181
holatda 36 gektar yer ixtiyoriy ravishda
qaytarildi.

Belgilangan muddatlarda ixtiyoriy
qaytarilmagan 46 gektar yer bo‘yicha
fuqarolik sudlariga murojaat qilinib,
noqonuniy qurilmalarni buzdirish va
yer maydonlarini asl holatiga keltirish
yuzasidan da’vo arizalari kiritildi. Shu-
ningdek, 82 holatda 11,1 gektar may-
dondagi qonunbuzilishlar to‘g‘risida
prokuratura organlariga ma’lumotlar
taqdim etildi.

Fozil XUDOYQULOV,
Kadastr agentligi viloyat
boshqarmasi boshlig‘i.

HECH BIR MUROJAAT E'TIBORDAN CHETDA EMAS

(Davomi.
Boshlanishi 1-sahifada).

To'g'ri, bugun davlat organlari va rahbarlarning ham murojaatlar bilan ishlash tizimi o'zgarib, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ko'tarilgan har bir masala nazoratga olinib, ijobiy hal etish choralari ko'rilmog'da. Huquq-tar-tibot idoralari rahbarlari, vazirlar hokimlar va boshqa mutasaddilar tomonidan sayyor qabul-lar o'tkazilmo-qda. Bu tad-birlar chog'ida ham ko'plab muammoli, nizoli murojaatlarga yechim topil-mog'da. Lekin baribir, ko'p hollarda odamlar najot istab Prezi-dent Virtual va Xalq qabulxonalari-ga murojaat qilmog'da.

Jumladan, joriy yilning dastlabki olti oyida Urgut tumani aholisidan 5157 ta murojaat tushgan bo'lib, 3467 tasi, ya'ni 75 foizi qanoat-lantirildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mu-rojaatlarning asosiy qismi bolalar nafaqasi (375 ta), aliment undirish (282 ta), elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlari (198 ta), suyuqtilgan gaz bilan ta'minlash-dagi muammolar (171 ta), uy-joy (150 ta), mahalla ichki yo'llarini ta'mirlash (120 ta), davolanish va jarrohlik amaliyoti uchun mod-diy yordam (92 ta) bilan bog'liq bo'ldi.

Misol uchun, Quyi Torinjak mahallasida yashovchi M.Mahmudov Xalq qabulxonasiga hududdagi aholining elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash yuzasidan muro-jaat qildi. Mazkur murojaat asosida mahalla hududiga qo'shimcha 100 kilovattli yangi transformator punkti o'rnatish uchun mahalliy budjet hisobidan 60 million so'm mablag' ajratish bo'yicha xalq deputat-lari tuman Kengashining qarori qabul qilindi, yangi transformator hamda 8 ta elektr beton ustunlari o'rnatildi, 400 metr elektr tarmog'i tortildi. Natijada mahalladagi 50 ta xonadonning elektr ta'minoti yaxshilandi.

Chag'izmon mahallasi raisi A.Mahmudovning joriy yil mart oyida uy-ma-uy yurish orqali aniqlan-

gan yo'l, elektr, suyuqtilgan gaz va ichimlik suvi ta'minoti, aloqa (internet) tarmog'ini yaxshilash va ijtimoiy obyektlardagi muam-molarni barataraf etish bo'yicha tasdiqlangan yo'l xaritasini amalga oshirishda yordam so'ragan edi. Mazkur mahalladagi muammolarni hal etish maqsadida viloyat Xalq qabulxonasi va viloyat hokimligi-niing amaliy yordami bilan iyul oyida mahalla aholisiga 50 dona maishiy gaz ballon berildi. 1



kilometr masofaga aloqa tarmog'i hamda 1 kilometr toza ichimlik suvi tarmog'i tortildi. Ma-

halladagi ikkita ko'cha-da 1,2 kilometr masofada asfalt yotqizildi. Hozirgi kunda ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari davom ettirilmoqda. Mahalladagi 1978-yilda qurilgan davlat mak-tabgacha ta'lim tashkilotida ham rekonstruksiya ishlari boshlab yuborildi.

Albatta, bunday misollarni ko'p keltirish mumkin. Muhimi, murojaatlar e'tiborsiz qolmayapti. Hokim va sektor rahbarlari, bar-cha darajadagi mutasaddilar aholi ko'tarayotgan masalaga qonuniy, tezkor yechim topishga intilmoqda.

Sektorlar kesimida tahlil qilganimizda tuman hokimining sektorida 1334 ta murojaatning 428 tasi ijobiy hal etilgan. Tu-man prokurori boshchiligidagi 2-sektorda esa 1483 ta muro-jaatdan 469 tasi, IIB boshlig'i yetakchiligidagi 3-sektorda 1488 tadan 469 tasi va soliq inspeksi-yasi boshlig'iining sektorida 852 ta murojaatning 291 tasi ijobiy hal

etilgani ma'lum bo'ldi.

Sektor rahbarlarining o'tka-zayotgan sayyor qabullari aholini o'ylantirayotgan masalalarga joyida yechim topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, 2-sektor rahbari joriy yilning 15-mart kuni Joz-mon mahallasida o'tkazgan sayyor qabulda Taroqli mahal-lasida yashovchi Dilovar Razzo-qova mahalladagi yaroqsiz holga kelib qolgan simyog'ochlarni almashtirish va elektr tarmog'i tortishda amaliy yordam berishni so'rab murojaat qilgan edi. Mazkur murojaat nazoratga olinib, hozirgi kun-da Dehqonobod elektr tar-moqlari korxonasi tomoni-dan Taroqli mahallasida 60 dona elektr beton tayanch ustunlari o'rnatish va 1 kilometr elektr



tarmog'i tortish ishlari boshlangan.

3-sektor rahbarining shu yil 12-may kuni To'rtko'l mahal-lasida o'tkazgan sayyor qabulida G'ijduvon mahallasida yashov-chi Muhammadi Rahmonov mahallaning asosiy ichki yo'lini shag'allashtirishda amaliy yordam so'ragan edi. Bu masala bo'yicha tegishli tashkilotlar tomonidan amaliy ish olib borilib, 1 kilometr ichki ko'chaga shag'al yotqizildi.

To'rtinchi sektor rahbari ham Bog'ishamol mahallasidagi sayyor qabulidagi murojaat asosida Katta Torinjak mahallasidagi yaroq-siz holga kelgan aloqa tarmog'i beton ustunlarini almashtirishga yordam berdi va 150 metr aloqa tarmog'i tortildi.

Abduaziz XUDOYBERDIYEV,
Urgut tumani
Xalq qabulxonasi mudiri.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning 56,5 foizi farzandsiz, 22,0 foizi bitta va 21,5 foizi ikki va undan ortiq farzandli.



- Tomorqada ishlab ro'zg'orni obod qilish sirlarini otamdan o'rgan-ganman, - deydi Bulung'ur tumani Saxovat mahallasida yashovchi Boburjon G'afforov. - 10 sotixli tomorqamizda oilamiz bilan bir-ga ishlab, yiliga ikki marta hosil olamiz. Yana ikkita issiqxonada pomidor va bodring yetishti-ramiz. Mehnatimiz ortidan ro'zg'orimiz but, dasturxonimiz to'kin bo'lmoqda.

Rabbim HOTAMOV
olgan surat.

Ayolning oiladagi o'rni faqatgina uning pazandaligiyu yax-shi bekaligiga bog'liq emas. Tahlillar shuni ko'rsatayptiki, kasb-hu-narga yoki bilimga ega bo'lgan xotin-qizlar oila-da ko'proq o'rinni topib ketyapti, o'sha xonadonda turli gap-so'zlar chiqmaydi. "Ayollar daftari"ning tashkil etilishi, unga kiritilganlarga har tomonlama yordam ber-ilishi ularning oyoqqa turib ketishi, hunar o'rganishi yo biror ish boshlashi uchun turtki bo'lmoqda.

Bugungi kunda tumanimizda 5851 nafar ayol 4-bosqich "Ayollar daf-tari"da ro'yxatga olingan. Kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji bor bir guruh xotin-qizlar tumandagi kasb mak-tablarida o'qitilib, 24 ta mahallada oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik yo'lga qo'yildi.

Ona sog'lom bo'lsagina turmush tashvishlarini yengadi, oilasidagi chiroq porlab turadi. "Ayollar daftari"dagi be-mor xotin-qizlarga zarur ko'mak ko'rsatil-mog'da. Jumladan, 14 nafar xotin-qizda turli jarrohlik operatsiyalari bepul amalga oshirildi.

Birgina qush uyasi buzilganda ular-ni qanchasi chirqillashini eshitganmi-siz? Bir oila buzilsa-chi? Uning atrofi-dagi qanchadan-qancha odamlarning tinchi buziladi? Bobo-buvilar, yaqin qa-

rindoshlar, ayniqsa, farzandlar ko'zidagi mungni, iztirobni tasavvur qilish qiyin. Tumanda tashkil etilgan "Oqila ayol-lar" harakati a'zolari, otinoyilar, imom-xatiblar hamkorligida notinch oilalarga kirib borildi. Arzimas sabablar bilan ajrashishga qaror qilganlar yarashtiril-di. Xususan, jonkuyarlik va individual yondashuvlar tufayli shu paytgacha 178 notinch oiladan 58 tasi yarashtirildi, 98 nafar bolajonlar oila bag'rida yashay-digan bo'ldi.

Chorbog' mahallasidagi "Oqila ayollar" harakati faoli Zuhra aya Ju-manovaning sa'y-harakatlarini alohida ta'kidlashni istardim. Zuhra aya o'z hududidagi notinch oiladan kunda xabar oladi. Oilalardan bunday boxabarlik ularning hayotiga yaxshi ta'sir etgani-ni kuzatish mumkin. Chunki bir borib

yarashtirib kelish bilan ish bitmaydi, o'sha oilada muhit to'liq yaxshilanma-guncha xabar olinmas ekan, mudom kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin.

Notinch oilalarda zo'ravonliklar sodir bo'lish ehtimoli yuqori. Shuning uchun ularning holidan xabar olish, vaziyatni yaxshilash uchun doimiy harakat qilish muhim ahamiyatga ega. Yil davomida zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarning 29 nafariga himoya orderi olib berildi.

Shuningdek, ayollar o'rtasi-da ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar, uchrashuvlar doimiy ravishda o'tkazib borilayotir. Zero, yuqorida ta'kidlag-animday, bilimli, ma'rifatli ayol hech qachon yutqazmaydi.

Marhoba OCHILOVA,
Narpay tumani hokimi o'rinbosari –
oila va xotin qizlar bo'limi rahbari.

Ekologik barqarorlik aholining munosib hayotini belgilovchi muhim jihatga, hatto davlat siyosatiga aylandi. Shu paytgacha tabiatga e'tibor bermagan kishilar ham bugungi za-monda anomal sovuq, jazirama issiq, chang-to'zonlarning ko'payishi jarayonida bu holat nimadan kelib chiqqani haqida bosh qotirmog'da. Ekologiyani o'zgarishi, insoniyatning tabiatga shafqatsizlarcha munosabati tufayli yuqorida sanalgan tabiat hodisalari kuzati-layotgani va buning natijasida odamlar salomatligiga salbiy ta'sirlar ortayotgani barcha-ni tashvishlantirmog'da. Shu bois bizda davlat rahbarining tashabbusi bilan uch yildan buyon "Yashil makon" dasturi amalga oshirilmoqda.

"YASHIL MAKON":

EKILGANI EMAS, KO'KARGANI HISOB

Matbuot uyida viloyat hokim-ligi kotibiyati mudiri Tolib Bo-boyev hamda viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarma-si boshlig'i o'rinbosari Jamshid Rabbimov ishtirokida tashkil etil-gan mabuoat anjumanida ana shu loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusi vazifalar haqida ma'lumot berildi.

Viloyatda 2022-yil kuz mavsu-mida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 6 million 342 ming tup va 2023-yil bahorda 10 million 364 ming tup mevali, man-zaralari daraxt va buta ko'chatlari ekilgan. 2 milliondan ziyod rayhon, jambil, yalpiz va lavanda singari dorivor o'simliklar ekilib, bugungi kunda sug'orish va parvarishlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Ko'chatlar asosan umumfoy-dalanishdagi avtomobil yo'llari yoqasi, fermer xo'jaliklari ekin yer maydonlari chetlari, korxo-nalar va xizmat ko'rsatish sohalari hududlari, tuman (shahar)lardagi mahallalar hududlari, ijtimoiy soha obyektlari va obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi may-donlarga ekilgan. Mahallalardagi ko'chalar va ariqlar bo'yilari, ko'p qavatli uylar atrofiga 8 ming tup mevali va manzarali daraxtlar, tut ko'chatlari, terak qalamchalar va 15 mingdan ziyod gul ko'chatlari ekilib, namunaviy ko'chalar tashkil etilgan. 1700 ta xonadonga 17 ming tup mevali daraxt ko'chatlari bepul tarqatilgan.

Daraxt ekish va parvarishlash ishlari bajarish uchun jamoat ishlari jamo'armasidan 1,3 milliard so'm mablag' jalb qilgan holda 1260 nafar ishsiz fuqarolar, birin-chi navbatda, ijtimoiy daftarlardagi fuqarolarning yaqinchalik bandligi ta'minlangan.

"Yashil hududlar" salmog'ini oshirish maqsadida barcha tuman va shaharlarda 2023-yilda jami 15 gektar maydonda "Yashil bog'lar", 15 gektar maydonda "Yashil jamoat parklari", Samarqand shahri va To'loq tumanida 2,5 gektar mavjud istirohat bog'lari negizida jamoat parklari tashkil etildi, - deydi T.Boboyev. - Sa-marqand shahri Qorasuv mas-sivida rejalashtirilgan 52 gektar maydonning 38 gektarida "Yangi O'zbekiston bog'i" tashkil etildi. 14 ta tumanda 13 gektar hokimlik bog'lari barpo etildi.

Joriy yil kuzda loyiha doirasi-da yana 6 million 125 ming tup daraxt va buta ko'chatlari ekiladi.



Viloyatdagi ko'kalamzorlashtirish hududlarida 50 kilometrdan ziyod sug'orish tarmoqlari qaziladi va 30 ta yer osti suv chiqarish quduqlari qayta tiklanadi. Shuningdek, sha-harlar va tumanlar obodonlashti-rish boshqarmalariga 6,95 milliard so'm mablag' yo'naltirib, respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan ko'kalamzorlashtirish ishlariida foydalaniladigan 8 ta maxsus texnika xarid qilina-di. Hozirda daraxt ekish uchun 54 ta ko'chatxona tashkil etilib, qo'shimcha 13,5 million dona ko'chat zaxirasi yaratildi. Yana 16 ta shahar-tumanda 14,8 gektar hokimlik bog'lari, 28,4 gektar "Yashil bog'lar yaratiladi.

Bulung'ur, Jomboy tumanlari hamda Samarqand shahri hudu-didan o'tuvchi temir yo'l yoqa-sida 57,42 kilometr masofadagi 24,93 gektarda 30 ming 962 dona bodom, qayrag'och, aylant, terak daraxtlari ekilib, yashil maydon tashkil etiladi.

Viloyat hududida faoliyat ko'rsatayotgan sement ishlab chiqaruvchi korxonalar va ularga tutash hududlardagi 93 gektar maydonda 16 ming 753 dona (qayrag'och, yapon saforasi va aylant) ko'chatlar ekilib, "Yashil belbog'" tashkil etiladi. Barcha davlat tashkilotlari tomonidan 50 sotixdan 2 gektargacha yer may-donida tashkilot bog'lari barpo etiladi.

Aytilgan raqamlar kishini xur-sand qiladi. Ammo bir necha yildan buyon qaysi rahbar shu mavzuda gap ochsa, faqat shun-cha ming dona daraxt ekildi, degan fikrni bildiradi. Vaholanki, agar o'sha ekilgan daraxtlarning barchasi ko'karganda edi, ayrim hududlar o'rmonga aylangan bo'lardi. Faqat ekilgani emas, qurigan daraxtlarning ham hi-sobini kimdir yuritadimi? Axir ko'chatlarning aksariyati xorijdan valyuta hisobiga keltirilmoqda.

Mas'ullar esa ekilgan ko'chat-lar qaysi tashkilot maydoniga ekilgan bo'lsa, o'sha tashkilot ko'chat parvarishiga ham javobgar bo'lishini bildirishdi, xolos.

Anjumanda jurnalistlarning "Nega chetdan qimmatga ko'chat keltiryapmiz, o'zimizdagi sinovdan o'tgan, odamlarga nafi tegadigan ko'chatlarni ekmayapmiz?", degan savoliga mas'ullar yangilikka intili-shimiz kerak deya javob qaytardi. Mayli, yangilik yaxshi, lekin bir joyga bir necha yildan buyon xorij-niing bizning iqlimga mos bo'lma-gan ko'chatlarini ekaverish pulni havoga sovurish emasmi?

Darvoqe, avvalgi ma'lumot-larning birida viloyatdagi ekologi-ya sohasi rahbarlari viloyatdagi daraxtlar to'liq xatlovdan o'tka-zilayotgani va har bir daraxt jumladan, 100 yoshdan oshgan, noyob va boshqa turdagi daraxt-lar ham ro'yxatga olinib, elektron bazaga kiritilayotganini bildirgandi. Bugungi anjumanda ham rahbar o'rinbosari xatlov davom etayot-ganini bildirdi. Bu xatlov necha yil davom etadi? Qolaversa, Davlat rahbari tomonidan e'lon qilingan moratoriyga qaramasdan, qancha daraxt noqonuniy kesilib ketdi va bu hol hamon davom etmoqda. Shunday ekan, daraxtlarni elek-tron ro'yxatga kiritishdan nima naf?

Mas'ullarning aytishicha, viloyatda hozirda ko'kalamzor-lashtirish darajasi 18 foizni tashkil etadi va yaqin orada bu natijani 30 foizga yetkazish ustida ish olib borilmoqda. Viloyat ekologi-ya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jamshid Rab-bimovning aytishicha, viloyatda yil sayin daraxtlar soni ortib bor-mog'da, har bir daraxt ekilganda ro'yxatga olinmog'da. Lekin mas'ul hozir viloyatdagi daraxtlar soni qancha ekanligini aniq aytolmadi.

O. XUDOYBERDIYEV.

YARASHDI, DEGAN BILAN ISH BITMAYDI

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar maxsus maktab-internatlariga qabul qilinmoqda

Viloyatda imkoniyati cheklangan bolalar uchun 1 ta maktab va 7 ta maxsus maktab-internati faoliyat yuritmoqda. Ayni paytda jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarni 2023-2024-o‘quv yili uchun mazkur ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayoni davom etmoqda.

Bolalarni maxsus muassasalarga joylashtirish joriy yilning 5-iyulidan boshlangan bo’lib, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida olib borilmoqda.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bo-

larni qabul qilish uchun viloyat maktabgacha va maktab ta’limi hamda sog’liqni saqlash boshqarmalari mutaxassislaridan iborat doimiy harakatdagi viloyat tibbiy-pedagogik komissiyasi tashkil etilgan, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi mutaxassisi Erkin Bekbo‘tayev. – Ushbu komissiyada eshitish va ko‘rishida nuqsoni bor, murakkab nuqsoni bo’lgan bolalar tibbiy tekshiruv-

dan o‘tkazilib, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar beriladi va maxsus muassasalarga qabul qilindi. Shuningdek, bolalarning holatidan kelib chiqib, tibbiy ijtimoiy xizmatlar agentligi tasarufidagi tarbiya muassasalariga yo‘llanma asosida jo‘natiladi.

Doimiy harakatdagi viloyat tibbiy-pedagogik komissiyasining ish hajmi iyul-oktabr oylarida har haftaning chorshanba kuni, 1-12 avgustda dushanbadan juma kunigacha hamda noyabr-may oylarida bir oyda bir marta, har oyingning birinchi haftasi chorshanba kuni soat 9:00 dan 13:00 ga qadar o‘tkaziladi.

Shifoxonaning “chegarasi”

Jonlantirish bo‘limini har qanday shifoxonaning pulsi, deb aytilish mumkin. Bu bo‘limda ishlaydigan shifokor va boshqa tibbiyot xodimlari doim xuddi chegarada turgan askarlar kabi hushyor bo‘lishlari lozim. Aks holda...

Jomboy tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy shifoxonaning jonlantirish bo‘limida faoliyat ko‘rsatuvchi 14 nafar anesteziolog, 52 nafar hamshira necha yillardan buyon og‘ir ahvoldagi bemorlarni hayotga qaytarish uchun bor kuch-g‘ayratini ayamay mehnat qilayotir.


Bo‘limda nafas va qon aylanish o‘tkir buzilish holatlarida, travmatik va gemorragik shok, kardiogen shok, anafilitik shok, bolalarda uchraydigan o‘tkir og‘ir kasalliklar va boshqa ko‘plab xastaliklar davolanadi.

Joriy yilning shu davriga qadar bizning bo‘limda 570 nafar bemor davolanib chiqdi, - deydi bo‘lim boshlig‘i Samariddin Mahmudov. – Bo‘lim vrachlari tomonidan operatsiya vaqtida 1700 nafar bemorga narkoz amalga oshirildi.

Jomboy tumanida 186 ming nafarga yaqin aholi yashaydi. Ularga birlashmaning markaziy shifoxonasi, ko‘p tarmoqli poliklinikasi, 4 ta oilaviy poliklinika hamda 9 ta oilaviy shifokorlik punktlarida 225 nafar vrach, 930 nafar o‘rta tibbiyot xodimi xizmat ko‘rsatmoqda.

Joriy yilning olti oyi davomida 12 mingga yaqin bemor davolanib, oilasi bag‘riga qaytdi.

Tohir NORQULOV.



YTTBdan “Rahmdillik” NNTga homiylik yordami ko‘rsatildi

“Biz hayotni o‘zgartirishga investitsiya qilamiz”, deyilgan xorijlik homiy tashkilotining dastlabki xatida. Shuningdek, unda 122 million so‘mdan ko‘proq mablag‘ ko‘chirishmoqchiligi, biroq hisob raqamlarini bilmayotganligi qayd qilingan.

Ko‘rsatilgan manzila bankdagi hisob raqamlarini yuborgan “Rahmdillik” no-davlat notijorat tashkilotiga 9950,21 yevro mablag‘ kelib tushgan.

YTTBning Samarqandda o‘tkazilgan tadbirida hamkorlik memorandumini imzolangan edi, - deydi “Rahmdillik” NNT rahbari Bibisora Oripova. - Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan xotin-qizlarga ko‘rsatayotgan yordamimiz xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanayotgani bizga yangi kuch va shijoat bag‘ishlaydi. Bunday imkoniyat uchun albatta, davlatimiz rahbari va hukumatimizga minnatdorlik bildiramiz.

B.Oripovaga ko‘ra, hamkorlik memorandumini doirasida dastlabki qadam uning istiqboli yuqori bo‘lishidan darak bermoqda.

2010-yilning avgust oyi edi. Taniqli san’atkor, shoir, yozuvchi, iqtisodchi, shifokor, huquqshunos, o‘qituvchi va bir qator faollar qatorida biz, muxbirlar ham yurtimiz mustaqilligining 19 yilligi munosabati bilan targ‘ibot tadbiri o‘tkazish uchun tumanlarga borardik. Bir safar Narpay tumanining olis mahallasida bo‘ldik.

Qadrlab, qadr topgan inson

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan huquqshunos Aziz Yunusovni eslab

Targ‘ibot guruhi a‘zolari orasida eng keksa kishi Aziz Yunusov edi. Aziz aka mashinadan tushgach, salom-alikdan so‘ng mahalla faollaridan shu yerlik bir taniqli kishini so‘radi.

Anchadan buyon ko‘rinmay qoldi, betob bo‘lsa kerak...

Aziz akaning jahli chiqdi. Ammo bosiqlik bilan: “...Betob bo‘lsa, xabar olmadilaringmi?”, deb so‘radi. Ular javob berolmay, kalovlanib qolishdi.

Targ‘ibot tadbirini u kishining holidan xabar olishdan boshlaymiz, - dedi Aziz Yunusov qat‘iy va mashinani otaxonning xonadoni tomon boshqardi.

Bordik. 80 yoshni qoralab qolgan otaxon to‘shakda yotgan ekan. Bizlarni ko‘rib, ancha tetiklashdi, xursand bo‘ldi, duo qildi.

Bu inson qariyb oltmish yil qishloq xo‘jaligi sohasida ishlagan, - dedi Aziz aka qaytar chog‘imiz. – Odamlar hayotini yaxshilash, yengillatish uchun ne-ne ezgu ishlarni qilmagan, deysiz. Bunday insonlarni e‘zozlash, ardoqlash, ularning holidan xabar olish kerak. Mana, bor-yo‘g‘i 10 daqiqa vaqtimiz ketdi, ammo bir insonning, uning qavm-qarindoshlarining ko‘nglini tog‘dek ko‘tardik.

Tahririyatga ishga kelganimda “Zarafshon”ning jamoatchi muxbiri sifatida taniganim Aziz aka Yunusov bilan keyin ham shu kabi tadbirlarga birga borganmiz. Viloyatda juda ko‘pchilikni taniydigan bu inson qayerga borsa, bemor yoki ko‘makka muhtoj odamlarni so‘rar, hokimlik vakillari, tadbirkor yoki moddiy imkoniyati bor odamlar bilan ko‘rishib yo telefonlashib, o‘sha kishiga yordam berishini tayinlardi.

Suhbatlarimiz ham insonning qadri, hurmati haqida bo‘lard.

Keksalarni ardoqlash, ko‘makka muhtojlarning hurmatini joyiga qo‘yish qon-qonimizga singib ketgan fazilat, - derdi u kishi. - Inson tashqi surati-ga qarab emas, qalbining pokligiga qarab baholani, moli dunyosiga qarab emas, solih amaliga qarab taqdirlanadi. Inson qadrini o‘lchashning ana shu mezonlari ishga solinganagina odam o‘zining haqiqiy qadrini topadi. Zero, qadrlasang, qadr topasan, qadrlanasan, deydi xalqimiz.

Ezgu amallarini eslab, xotirlayotganimiz Aziz aka Yunusovning qisqagina tarjimai holi haqida ham aytmasak bo‘lmas. Chunki vafot etganiga o‘n ikki yil bo‘lgan bu insonni tanimagan mushtariylarimiz ham yo‘q emas, albatta.

Aziz aka 1928-yilda Samarqand shahrining Yangibek mahallasida tug‘ildi. Shahardagi 15-o‘rta maktabni tamomlab, Fajjistikon davlat universitetining huquqshunoslik fakultetida o‘qidi.

Oliy ma‘lumotli bo‘lganidan so‘ng ko‘p yillar huquqiy sohada, mas‘ul lavozimlarda ishladi. U kishining qariyb yarim asrlik faoliyati sud va adliya idoralari bilan bevosita bog‘liq. Siyob tumani sudi, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shahar sudining raisi vazifalarida ishladi. Keyinchalik viloyat sudi raisi muovini, raisi bo‘ldi.

Aziz Yunusov oddiy sudyalikdan respublika Oliy sudi sudlar boshqarmasining rahbarligiga-cha bo‘lgan yo‘lini bosib o‘tish barobarida yuzlab



huquqshunoslarga ustozlik qildi. Ularga qonun ustuvorligini ta‘minlash, chin ma‘nodagi adolat posbonlari bo‘lishlarida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatdi.

Sudya bo‘lib ishlagan paytlarida Aziz aka qonun va adolatni yuksak tutib, jamiyat osoyishtaligi, xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qildi. Qonunlarni adashganlarni jazolash uchun emas, avvalo, tarbiyalash uchun xizmat qildirishi bilan odamlar mehrini qozongandi. U bilan suhbatlashgan kishi o‘zini donishmand huzurida hayot saboqlarini olayotgan odamdek his etardi. Samimiy, oqko‘ngil, yordamga muhtoj kishilardan ko‘magini darig‘ tutmaydigan inson edi.

Qanchadan-qancha nohaq jabrlanganlarni oqladi. Qanchadan qancha qonunbuzarliklarning oldini oldi, adashganlarni ko‘g‘ri yo‘lga soldi.

Aziz aka har bir ishni ko‘rib chiqar ekan, avvalo, inson taqdiri, adolat mezonini, qonun doirasida ish ko‘rardi. “Bizning ishimizda mayda-chuyda bo‘lmaydi, har bir ishning ortida insonlar taqdiri turibdi, ularga yuzaki, befarq qarash mumkin emas”, der edi.

Pensiyaga chiqqandan keyin ham sud tizimi faxriylarini qo‘llab-quvvatlash jamoatchilik markazining turli tadbirlarida faol qatnashdi. Viloyat va markaziy gazetalarda sud-huquq islohotlari, sohada bo‘layotgan yangiliklarga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalarini e‘lon qildi. Natijada 2007-yilda Adliya vazirligi tomonidan o‘tkazilgan “Eng yaxshi huquqiy maqola” ko‘rik-tanlovida sovrindor bo‘lgandi.

Darvoqe, Aziz aka yetuk huquqshunos bo‘lish bilan birga O‘zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a‘zosi ham edi. “Zarafshon” gazetasiyning 2004-yildan 2011-yilgacha chiqqan taxlamlarini kuzatgan kishi A.Yunusovning inson qadri, ma‘naviy kamoloti, insoniylik fazilatlarini ulug‘lovchi o‘nlab maqolalarini o‘qiydi.

Tahririyatga yaqin bo‘lgani boismi, ayrim yig‘ilishlarda ta‘lim dargohlari, korxona-tashkilot, muassasa rahbarlari, kasaba uyushmalari raislarini jamiyatga foydasi tekkan olim, professor yoki oddiy soha odamlarining tavallud topgan kuni haqida gazetada maqola berishga, vafot etgan hamkasblari haqida kichkina bo‘lsa-da, bildirish berishga chorlard. “Bu sizning, mening insoniylik burchimiz. Jamiyatning faol odamlari haqida odamlarga xabar bering, ular bilishsin. Bu ishingiz yoshlarga ham ibrat bo‘ladi, buni unutmang!”.

Hayotning yozilmagan qonunlari ham bor. Taqdir sinovi odamni erta ulg‘aytiradi, kurashchan, illatlarga nisbatan murosasiz qilib tarbiyalaydi. Hayoti davomida Aziz aka ana shu sinovlarga duch kelgan, aniqrog‘i, ulardan mardonavor o‘tgan inson edi.

Muhimi, u kishi keksaygan chog‘ida ham shijoati, tashabbuskorligi bilan ko‘pchilikka o‘rnak bo‘ldi. Shuning uchun ham davralarda u kishining achchiq, ammo ibratli gaplari hamon eslanadi va unga amal qilishadi.

Akram HAYDAROV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari.

REKLAMA, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA‘VOLAR BO‘LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Umedov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Umedov Inoyatulloaga (2020-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko‘chasi, 62-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Gulyamov Isroilga (2015-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Raximova Nigora Salimovna (2021-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Raximov Erkin Ergashevichga (2022-yil

16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Boturov Xaydarga (2017-yil 22-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Annakulov Ilxomga (2022-yil 8-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Avakyan Svetlana Surenovna (2021-yil 1-oktyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Raximov Usinga (2005-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Rofeyeva Muzafarga (2023-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 1-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Olimov Batirkul Anarbayevichga (2022-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasida marhum Fayziyev Tuyg‘on Astanakulovichga (2021-yil 2-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning

Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Abdulla Qurbonov mahallasi, Saroy ko‘chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum O‘ralov Shodiyor Urazovichga (2023-yil 6-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.

BEKOR QILINADI

Fuqaro Raxmatova Mavjudaga tegishli Samarqand viloyati Toyloq tumani Vorsin mahallasi Vorsin qishlog‘i 20-uy-joyning (2022-yil 12-aprelda tasdiqlangan № 202201714001613-sonli) oldi-soldi shartnomasining sotib olovchidagi nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilindi.

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi “Xalq so‘zi” va “Народное слово” gazetalar bosh muharriri o‘rinbosari Jamoliddin To‘xtashevga onasi

Ra‘no NIYOZOVANing
vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

“Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalar jamoasi hamda O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi matbuot faxriysi, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi Fozil Abduraupovga ukasi

Farrux ABDURAUPONing
vafoti munosabati bilan ta‘ziya izhor etadi.

Ochiq gap

Ikkinchi jahon urushi yillarida Buyuk Britaniya bosh vaziri Uinston Cherrchillga mamlakatning kelgusi yil uchun yillik budjetini taqdim qilishadi. Bosh vazir hujjat bilan tanishib chiqib, madaniyat uchun ajratmalar yoʻqligi sababini soʻraydi. Shunda moliya vaziri “Axir urush ketyapti, qanaqa madaniyat haqida gapiryapsiz?”, deb javob beradi. Bunga javoban U.Cherrchill shunday degan ekan: “Madaniyatga pul ajrat-mas ekansiz, biz nima uchun jang qilyapmiz?”.

MUZEYLARGA EʼTIBOR OSHDI, AMMO... TIZIMDA HAL ETILISHINI KUTIB TURGAN MUAMMOLAR HALI KOʻP

Maqolani buyuk davlat arbobi U.Cherrchillning gaplari bilan boshlaganimiz bejiz emas. Haqiqatan ham, madaniyat millatning borligini bildirib turadi. Muzeylar esa milliy madaniyatning yorqin namunasi, davlat tari-xining tirik guvohlarini saqlovchi, oʻrganu-vchi va omмага namoyish etuvchi maskan hisobla-nadi.

Keyingi yillarda hu-kumat tomonidan muzeylarga eʼti-bor kuchaydi. “Muzeylar toʻgʻrisi-da”gi

Qonun yangi tahrirda qabul qilin-di. Muzeylarda servis tizimini ta-komillashtirish haqida Prezident qarori qabul qilindi. Oʻzbekiston muzeylari bir nechta xorijiy koʻrgazmalar-da ishtirok etdi va bu jarayon izchil davom etmoqda.

Shu bilan birga, tizimda hali hal etilishini kutib turgan muammolar talaygina. Yaqinda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Sena-tining muzey ashyolari va kolleksiyalarini saqlash hamda ularning xavfsizligini taʼmin-lash choralari yuzasidan Oʻzbekiston Respub-likasi Madaniy meros agentligiga yubo-rilgan parla-ment soʻrovi natijalari xususi-dagi

yigʻili-shi boʻlib oʻtdi. Ush-bu yigʻilishda muzeylarning bu-gungi holati haqida bir qator muammolar koʻrib chiqildi.

Jumladan, muzey binolaridan tashqa-rida muzey ashyolari va kolleksiyalarining mahalliy va xorijiy koʻrgazmalarini tashkil etish va oʻtkazish qoidalarini belgilanma-ganligi koʻrsatilgan. Vazirlar Mahkamasi-ning 1994-yil 23-dekabrda “Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tad-birlari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, “Ek-sponatlarni (koʻrgazma nusxalarini) xorijga olib chiqish hamda xorijda muzey fondi, ja-moat va shaxsiy toʻplamlarning koʻrgazma-larini oʻtkazish qoidalarini” tasdiqlangan. Ammo unda muzeydan tashqarida mahalliy koʻrgazmalarni tashkil etish va oʻtkazish qoidalarini belgilanmagan. Shuningdek,

ushbu qoidalar muzey ashyolari ishtirokida mahalliy va xorijiy koʻrgazmalarni tashkil etish va oʻtkazishning barcha jihatlarini toʻliq qamrab olmagan.

Yigʻilishda muzey binolarini qurish, taʼmir-lash, muzey ashyolari va muzey kolleksiyala-rini saqlash hamda xavfsizligini taʼminlash nuqtai nazaridan jihozlash meʼyorlari ishlab chiqilmaganligi qayd etildi. Vazirlar Mahkama-sining 2008-yil 31-oktabrdagi “Muzeylar faoli-yatiga taalluqli meʼyoriy hujjatlar toʻgʻrisida” va 2010-yil 12-apreldagi “Oʻzbekiston Res-publikasining “Muzeylar toʻgʻrisida”gi Qon-unini roʻyobga chiqarish uchun zarur boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi qarorlari qabul qilingan. Ushbu hujjatlarda muzeylarni tashkil etish, muzey ashyolarini saqlash, oʻrganish va namoyish etish qoidalarini belgilangan. Ammo muzey binosiga qoʻyiladigan talablar, fond zaxiraxo-nalari, ekspozitsiya zallari va boshqa yordam-chi xonalarni muzey ashyolarining xavfsiz-ligini taʼminlash nuqtai nazaridan jihozlash qoidalarini belgilanmagan. Yaqin-yaqingacha sovet davrida ishlab chiqilgan muzey binola-rini qurish qoidalarini amal qilib keladi. Ammo keyingi vaqtlarda dunyo muzeylarida amal-ga oshirilayotgan innovation yondashuv-lar, mamlakatimizda ham muzeylarda servis sohasini rivojlantirishga doir qabul qilinayot-gan qaror va farmonlarda koʻzda tutilgan yangiliklarni amalga tatbiq qilishda zamonaviy yechimlarga ega boʻlgan muzey binolariga zarurat tugʻilyapti.

Aksariyat muzeylar binolari taʼmirtalab holatda ekanligi, isitish va sovitish tizimi ishlamasligi, moddiy-texnik bazasi maʼnan eskirganligi, muzey ekspozitsiyalarini texnik jihozlash muzey talablari va standartlariga mos kelmasligi, muzey fondlarida haro-rat va namlik meʼyorlari buzilayotganligi, muzeylar ekspozitsiya maydoni torligidan noyob ashyolar zaxiraxonalarda qolib keta-yotganligi ham yigʻilishda qayd etilgan.

Vazirlar Mahkamasining “2017-2027-yillarda davlat muzey-lari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi-ni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq, respublika boʻylab bir necha yangi muzeylar, jumladan, Samarqand viloyatida Ergash Jumanbulbul oʻgʻli yodgorlik-muzeysi va Mah-mudxoʻja Behbudiy uy-muzeylari tashkil etildi. Qaror bilan 2018-2027-yil-larda davlat muzeylari binolarini qurish, re-konstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash va jihozlashning manzilli dasturi ishlab chiqilgan. Dasturga muvofiq, Oʻzbekistondagi aksariyat, keyingi 50-60 yillar davomida taʼmirlanmagan muzeylarni taʼmirlash, moslashtirilgan binolar-da joylashgan muzeylar uchun yangi binolar qurish ham belgilangan. Jumladan, Samarqa-nd davlat muzey-qoʻriqxonasi tarkibidagi eng katta muzey - Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeysi uchun yangi bino qurish, Sa-driddin Ayniy uy-muzeysi, viloyat oʻlkashunos-lik muzeysi, Afrosiyob muzeysi, Mirzo Ulugʻbek muzey-majmuasi, Paxtachi tumani tarixi muzeysi, Kattaqoʻrgʻon shahar tarixi muzeysi, Ishtixon tumani tarixi muzeylarini mukammal taʼmirlash koʻzda tutilgan. Ammo shu kunga-cha Sadriddin Ayniy uy-muzeysi va Paxtachi tumani tarixi muzeysi taʼmirlandi, xolos. Qol-ganlari taʼmirlanmasdan qolyapti.

Muзей ekspozitsiyalarining texnik jihoz-lanishi muzey talablari va standartlariga mos kelmasligi bilan bogʻliq kamchiliklar Oʻzbekistondagi barcha muzeylarda mavjud boʻlib, bu birinchidan, aksariyat muzeylar-ning moslashtirilgan binolarida joylash-ganligi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchidan, koʻrgazmalarni texnik jihozlash yoʻnalishida

Psixolog deganda koʻpchilikning xayoliga ruhiy kasallarni davolovchi maxsus kasb egalari keladi. Ammo bu tushuncha toʻgʻri emas. Negaki, sogʻlom boʻlishiga qara-masdan, psixologga ehtiyoj koʻpchilik-da mavjud. Inson oʻzini qiynayotgan ruhiy muammolariga tajribali va is-honchli mutaxassis bilan birgalik-da yechim izlashi aslida oqilona qaror. Demak, zarur boʻlganida psixologga murojaat qilish – bu ruhiy ojizlik yoki xastalik-ning belgisi emas.

malakali mutaxassislarning kamligi bilan izohlanadi. Toshkent shahrida ushbu yoʻnalishda malakali mutaxas-sislar, xususiyy firmalar faoliyat koʻrsatadi. Biroq viloyatlarda bunday mutaxassislar mavjud emas. Shuningdek, Oʻzbekistonda muzeylar va kutubxonalarni jihoz-lash uchun mahsulot ishlab chiqa-ruvchi korxonalar ham juda kam. Bori ham koʻpincha sifatsiz mahsulot ishlab chiqaradi va aksariyat hollar-da ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning (masalan, vitrinalar) ekspluatatsiyasi davrida muammolar yuzaga keladi.

Yigʻilishda shuningdek, muzey rahbar xodimlari va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari hamda chet elda malaka oshirishi va tajriba al-mashish tizimli yoʻlga qoʻyilmaganligi taʼkid-landi. Tan olish kerak, Oʻzbekistonda jahon standartlariga muvofiq jihozlangan sanoqli muzeylar mavjud. Innovatsion texnologiyalar, masalan, multimedia vositalaridan muzey ishida foydalanish borasida oqsash kuzati-ladi. Muзей xodimlarining chet elda malaka oshirishi va tajriba almashish tizimining yoʻlga qoʻyilishi ana shu boʻshliqni toʻldirishning eng maqbul yechimidir.

Muзей ashyolari va kolleksiyalarini eks-pertizadan oʻtkazish uchun fizik, kimyoviy, texnik va boshqa ixtisoslik boʻyicha mutax-assislar yetishmasligi ham yigʻilish kun tar-tibidan oʻrin olgan. Ushbu muammo keyingi yillarda hukumat qarori bilan Oʻzbekiston muzeylarida oʻtkazilgan xatlov davomida koʻzga tashlandi. Ashyolarning asllik da-rajasini aniqlovchi uskunalar birgina davlat asliligi darajalarini belgilash palatasida mavjud boʻlib, u ham faqat qimmatbaho toshlar va metallarning asilligini belgilaydi. Mato,

Masalan, ota-onamiz-dan, aka-uka va opa-singlimizdan, doʻstimizdan, tur-mush oʻrtogʻimizdan yoki umuman, bizga notanish boʻlgan begonalardan ham. Xoʻsh, bu qanchalik toʻgʻri?

Psixolog eng avvalo, oʻzgalarni tushunishi hamda his eta olishi zarur. Oʻzimizdan aqlliroq deb bilgan odamdan maslahat soʻrasag-u, u hayotiy tajribalari aso-sida yordamchi fikr bera olgan boʻlsa, oʻsha inson biz uchun psixo-log vazifasini bajargan hisoblanadi, biroq bu yetarli emas. Aytaylik, kimdir “psixologga ehtiyojimiz bormi?” deb savol bersa, xayolimizga darrov maxsus mutaxassis keladi va koʻpchiligimiz “yoʻq” deb javob berishimiz turgan gap. Chunki aksariyat odamlar uchun psixolog-ga koʻrinish “uyatli”. Bu esa chinakamiga achinarli holdir. Bir oʻylab koʻraylik, biz shu paytgacha psixologiya sohasiga umuman aʼloqasi boʻlmagan qanchadan-qancha nomutaxassislar koʻmagidan foydala-nib kelmoqdami. Ular toʻgʻri tavsiyalar bera olishsa yaxshiku-ya, aksi boʻlsa-chiʼ?

Yaqinda koʻchada ketayotib, tasodifan bir voqeaga guvoh boʻldim. Chamasi qirq yoshlardagi ota oʻz oʻgʻlini maktabda yaxshi oʻqimayot-ganligi tufayli baland ovozda tergab, hatto urayotgandi. Bolaga rah-mim keldi, chidab turlomadim va ularning munosabatiga qoʻshildim: - Amaki, koʻchadamiz, odamlar koʻz oʻngida bolangizga qoʻpollik bilan berayotgan tarbiyangiz natija bermasligini nahotki bilmaysiz...

- Siz aralashmang! Oʻqituvchisi bolangizning tarbiyasiga qattiqroq turing, deb aytdi, - dedi-da, oʻgʻlining qoʻllaridan mahkam tutib, ye-taklab ketdi.

Oʻqituvchining koʻrsatmasini notoʻgʻri anglaganligi tufayli ota oʻz bolasini tarbiyalash oʻrniga, undagi salbiy oʻzgarishlar sababchisiga aylanib qolishi shubhasiz. Balki maktab psixologi ham oʻz vazifasini toʻgʻri bajarmayotgandir. Bu esa alohida mavzu...

Umrimiz davomida psixologga koʻp bor ehtiyoj sezarkanmiz-u, ammo oʻzimiz buni anglamas ekanmiz. Mutaxassis psixologning maslahatgoʻylarimizdan farqi shundaki, unda tajriba, bilim, koʻnikma, malaka va eng asosiysi, har qanday ruhiy ogʻriqlarimizga ishonchli va qulay yechim boʻladi. Tanlash va qaror chiqarish oʻzimizga bogʻliq!

Jasurbek SHUKUROV.

zish va ish staji ketishi uchun ishlaydigan xodimlar yigʻila boshladi. Butun oʻtgan davr mobaynida faqat bir marta Vazir-lar Mahkamasining 1998-yil 5-martdagi “Muzeylar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash masalalari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, muzey xodimlari maoshiga 25 foiz usta-ma haq qoʻshib berish yoʻlga qoʻyilgan. Ammo shu bilan ham muzey xodimlari oʻzlariga yuklatilgan masʼuliyatdan bir necha barobar kam maosh bilan kifoyala-nishga majbur boʻlishmoqda.

Muzeylar nafaqat tomoshabinlar uchun tarixga sayohat qilish imkonini beruvchi maskan, balki bir vaqtning oʻzida ulkan ilmiy

laboratoriya hamdir. Muzeylar fondlari va arxivlarida tariximizga taalluqli boʻlgan, oʻz tadqiqotchisini kutib turgan bir necha yuz minglab manbalar mavjud. Ularni tadqiq etish, ilmiy muomalaga kiritish Vatanimiz tarixining ochilmagan sahifalarini yoritish imkonini beradi. Ammo taʼkidlanganidek, muzeylarda ilmiy-fundamental tadqiqotlar-niing qoʻllab-quvvatlanishi tizimi haligacha yaratilmagan.

Oʻylaymizki, Oliy Majlis Senatining yigʻili-shi yuzasidan qabul qilgan qarorlari sohada oldinga siljishga imkon yaratadi.

Maxmudxon YUNUSOV, muzeyshunos.

Imkoniyat va muvaffaqiyat

Samarqand davlat universiteti intellek-tual tizimlar va kompyuter texnologi-yalari fakultetida bugungi kunda kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari, sunʼiy intel-lekt, dasturiy injiniring taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha 600 ga yaqin talaba tahsil olyapti.

sopol, yogʻoch, jundan tayyorlangan ashyolar uchun faqat kimyoviy tahlillar oʻtkazilishi zarur. Buning uchun mutaxassislar juda kam.

Muzeylarda oylik maoshlarning pastligi kadrlar qoʻnimsizligi-ga sabab boʻlayotganligi, ilmiy-fundamental loyihalarni qoʻllab-quvvatlash tizimining yaratilmaganligi ham yigʻilish kun tartibida muhokama qilindi. Oʻzbekistondagi barcha muzey-larda keyingi 30 yil davomida kadrlar masalasida muammolar yuzaga kelgan. Yaʼni, oʻtgan asrning 90-yillarida muzey sohasiga eʼtibor-niing susayishi natijasida xodimlarning mehnatiga haq toʻlash tizimi isloh qilinmadi. Oqibatda muzeylarda kadrlar qoʻnimsizligi yuz berdi. Deyarli barcha muzeylarda salohiyatli kadrlar yaxshiroq maosh toʻlanadigan sohalarga oʻtib ket-di. Muzeylar oldida esa ish soʻrab kelgan har qanday kadрни ishga olishdan boshqa chora qolmadi. Buning natijasida muzey-larda oʻz ishini bilmaydigan, vaqt oʻtka-

Fakultetda sunʼiy intellekt va axborot tizimlari, kompyuter ilmlari va texnologiyalari fanlari, dasturiy injiniring kafedralari mavjud boʻlib, 50 ga yaqin professor-oʻqituvchi tala-balarga saboq beryapti. Fakultet Hindiston, Ma-layziya, Angliya, AQSh, Rossiya, Koreya, Xitoy, Yaponiya, Qozogʻiston kabi davlatlarning nufuzli oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik aloqala-rini oʻrnatgan.

Joriy yilda fakultet qoshi-da IT markaz tashkil etilib, unda roboto-texnika, sunʼiy intellekt, grafik dizayn, veb-dizayn, 3D model-lashtirish,



maketlar yasash, mobil qurilmalar uchun dasturlash, moushn grafika kabi savodxonlik kurslari yoʻlga qoʻyildi. Bu mamlakatimiz oliy oʻquv yurtlarida-gi eng zamonaviy va yetakchi IT markazlaridan biri sanaladi. Unda tahsil olayotgan talabalar bir qator xalqaro va respublika koʻrik-tanlovlarida yuqori natijalarni qoʻlga kiritayotgani ham shundan dalolat berib turibdi.

- Yaqinda Toshkent davlat texnika universitetida oʻtkazilgan “ROBOT. UZ - 2023” xalqaro koʻrik-tanlovda universitetning “Robotex” jamoasi ishtirok etdi, - deydi dasturiy injiniring kafedrası oʻqituvchisi Sardor Ob-loqulov. - Xalqaro tanlovda 10 dan ortiq davlatdan 50 ga yaqin talabgor qatnashdi. Bizning jamoa “Foydali robotlar” yoʻnalishi boʻyicha gid-robot loyihasi bilan ishtirok etib, faxrli birinchi oʻrinni egalladi.

Ushbu robot mikrokontroller va qoʻshimcha qurilmalar orqali yasal-gan boʻlib, boshqaruv dasturlash asosida amalga oshiriladi. Gid-robot-ga buyurtmachining xohishiga qarab, istalgan maʼlumotlarni joylashti-riish mumkin. Jamoaning bu kabi xalqaro tanlovlarga olib chiqadigan loyihalari talaygina. Ayni vaqtda ular yanada mukammalroq loyihalar ustida ish olib boryapti.

- Joriy yilning 20-iyun kuni Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan bitiruvchi talabalar uchun oʻtkazilgan olimpiadada qat-nashib, informatika va axborot texnologiyalari fani boʻyicha bilimlarimni sinovdan oʻtkazdim, - deydi universitetning amaliy matematika va in-formatika yoʻnalishi talabasi Otabek Esanov. – Ushbu tanlovda ikkinchi oʻrinni qoʻlga kiritib, magistraturaga davlat granti asosida oʻqishga kirish imkoniyatiga ega boʻldim. Bunda albatta, universitetimizdagi IT markazda malakali mutaxassislardan olgan bilimlarim asqotdi.

Abdusattor BOBOYOROV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 394 nusxada chop etildi. Buyurtma 402. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda